

N. B. RO'ZIQULOV

YOSH HAYVONLAR

TERAPIYASI

O ZBEKISTON RESPUBLIKASI 01.1 Y VA 0'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

**YOSH HAYVONLAR VA
PARRANDALAR TERAPIYASI**

*Oliy ta'lim muassasalarining 5A440101-Hayvonlarga tashxis qo'yish va
davolash ta'lim mutaxassisligi magistratura talabalari uchun Darslik*

Toshkent - 2021 «Fan ziyosi» nashriyoti

UO' K:456.14.530.(21)

KBK: 45-46.8

R-15

**N.B.Roziqulov. YOSH HAYVONLAR VA PARRANDALAR
TERPIYASI. Darslik. Toshkent, «Fan ziyosi» nashriyoti, 2021. 212 bet.**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021 yil 31 maydagi
237-sortli buyrug'iga asosan rtashrga tavsiya etilgan*

Yosh hayvonlar va parrandalar orasida ichki yuqumsiz kasalliklar juda keng tarqalgan bo'lib, keyingi yillarda vatanimiz hamda chet el olimlari tomonidan ushbu guruh kasalliklarini ertachi aniqlash, davolash hamda oldini olish bo'yicha sezilarli ijobiy natijalarga erishilgan.

Magistratura mutaxassisliklari davlat ta'lim standarti, o'quv rejasi va fan dasturi asosida yaratilgan ushbu darslikda yosh hayvonlar organizmining anatomo-fiziologik xususiyatlari, yosh hayvonlar va parrandalarni fiksatsiya qilish va klinik tekshirish usullari, yosh hayvonlar va parrandalarning ichki yuqumsiz kasalliklarining kelib chiqish sabablari, rivojlanishi, belgilari, tashxisi, qiyosiy tashxisi, davolash va oldini olish usullari bo'yicha keyingi yillarda erishilgan bir qator ilmiy tadqiqot natijalarining qisqacha tafsilotlari ma'lum tartib asosida magistratura talabalariga tushunarli tarzda bayon etilgan.

Darslik veterinariya meditsinasi ta'lim sohasi bo'yicha oliy ta'lim muassasalarining 5A440101-Hayvonlarga tashxis qo'yish va davolash magistratura mutaxassisligi talabalari uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar: B.BAKIROV - veterinariya fanlari doktori, professor;
B.A.ELMURODOV - veterinariya fanlari doktori, katta ilmiy xodim.

ISBN: 978-9943-7468-7-9

© *N.B.Roziqulov. Yosh hayvonlar
va parrandalar terapiyasi. Darslik.*

SO‘Z BOSHI

*«Kitobsiz taraqqiyotga, yuksak ma'naviyatga
erishib bo'lmaydi.*

*Kitob o'qimagan odamning ham, millatning
ham kelajagiyo'q».*

Sh.Mirziyoyev

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentyabrdagi PQ-3271-son «Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi lo‘g‘risida»gi qarorida ta’kidlanganidek, bugungi kunda mamlakatimizda 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha «Harakatlar strategiyasi» asosida barcha soha va tarmoqlarda ulkan o‘zgarishlar ainalga oshirilmoqda. Bu borada jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an'analami chuqur qaror toptirishga, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo‘lgan kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Barcha sohalarda bo‘lganidek, insoniyatni asrashdek olijanob sharafga muyassar bo‘lgan veterinariya meditsinasi sohasining barcha ta’iim jabhalarida ham talaba-yoshlar orasida kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqish kundan-kunga oshib bormoqda. Ayniqsa, soha kasalliklari orasida salmoqli o‘rinni egallaydigan yuqumsiz kasalliklarni ertachi aniqlash, samarali davolash hamda oldini olish usullarini o‘zida mujassam etgan o‘quv adabiyotlarining yaratilishi sohani rivojlantirishdagi muhim omillardan biri hisoblanadi.